

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAR JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

ISAYEV IQBOLJON BURXONJONOVICH

**BELBOG‘LI KURASHCHILARNING MUSOBAQA OLDI
TAYYORGARLIK BOSQICHIDA O‘QUV YUKLAMASINI
REJALASHTIRISH**

**13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptive jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2024

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Isayev Iqboljon Burxonjonovich

Belbog‘li kurashchilarning musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichida o‘quv yuklamasini rejalashtirish.....3

Исаев Икболжон Бурхонжонович

Планирование учебной нагрузки борцов на поясах на этапе предсоревновательном подготовки.....27

Isaev Iqboljon Burkhozjonovich

Planning the training load of belt wrestlers at the pre-competition training stage
.....
51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....54

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

ISAYEV IQBOLJON BURXONJONOVICH

**BELBOG‘LI KURASHCHILARNING MUSOBAQA OLDI
TAYYORGARLIK BOSQICHIDA O‘QUV YUKLAMASINI
REJALASHTIRISH**

**13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptive jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.Phd/Ped3919 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.jtsu.uz va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Qirg'izboyev Ma'ruf Mo'ydinovich**
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar: **Muxammadiyev Komil Burxonovich**
pedagogika fanlari doktori, (DSc), dotsent

Artiqov Zoxid Sobirjonovich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Yetakchi tashkilot: **Chirchiq davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "___" "___" soat ___dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (0-370)-717-17-19, 79, 717-27-27, faks.: (0-370)-717-17-76, veb-sayt: www.jtsu.uz.e-mail:jtsu@jtsu.uz O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, "B" bino, 2-qavat, Ilmiy kengash majlislar zali).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil "___" _____ da _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

F.A.Kerimov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
p.f.d. professor

L.Z.Xolmurodov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
p.f.b.f.d. (PhD), dotsent

O.J.Dadabayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi,
p.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida milliy kurashimiz turlari keng taraqqiy etishi bilan bir qatorda, belbog‘li kurashchilarni tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish yuzasidan keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Lekin shu bilan birga, aynan belbog‘li kurash bilan shug‘ullanuvchilarning musobaqa oldi tayyorgarlik mashg‘uloti yuklamalarining optimal nisbatini aniqlash, o‘quv mashg‘uloti jarayonlarida samarali vosita va uslublarni qo‘llash masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Belbog‘li kurashchilarni musobaqalarga tayyorlashda yakkakurash sport turlaridan foydalaniladigan barcha mashqlar asosida o‘quv-mashg‘ulot jarayonini tashkil qilish hamda jismoniy rivojlanish, texnik-taktik harakatlar samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning yetarlicha o‘rganilmaganligi, soha mutaxassislari oldiga qator vazifalarni qo‘ymoqda.

Jahonda belbog‘li kurash bo‘yicha peshqadamlik qilayotgan davlatlarda soha mutaxassislari va yetakchi tadqiqotchilar tomonidan belbog‘li kurashda umumiy va maxsus harakatlar mutanosibligini ta’minlash, turli xil murakkab usullarni bajarishda texnik harakatlarni o‘rgatish uslubiyatlari bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Belbog‘li kurash musobaqalarini kuzatish natijasida malakali belbog‘li kurashchilar tomonidan bajarilgan yuqori mahoratni aks ettiruvchi harakat tayyorgarligi bo‘yicha ham raqobat keskin oshib borayotganligi sababli musobaqa natijalarining o‘shish ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi obyektiv ma’lumotlarni tahlil qilish va shu asosda tayyorgarlikning turli jihatlarini optimallashtirish muammosi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichida texnik usullar va jismoniy sifatlarni rivojlantirishning yangi vosita, metodlarida mashg‘ulot davrlarida beriladigan yuklama hajmi va shiddatini tartibga solishga qaratilmoqda. Tabiiyki, belbog‘li kurashchilarning mashg‘ulotlarda yuklamalar me’yori kattaligi yo‘nalishi orqali mashg‘ulotlarni rejalashtirish hamda musobaqalar oralig‘ida yuklamaning umumiy kattaligini o‘shirib borishi bo‘yicha muammolar hamda mavzuga doir masalalar deyarli o‘rganilmagani kuzatilmoqda.

Respublikamizda sportni ommalashtirish va yuqori natijalarga erishishda sportchilarning jismoniy hamda texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirish muammosiga ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. “Kurashni yanada rivojlantirish va ommalashtirish mamlakatimiz aholisining barcha qatlamlarini yoshidan qat’i nazar sog‘lom turmush tarziga jalb qilish, yoshlarni Vatanga sadoqatli etib tarbiyalash, kurashni jahon xalqlarining sevimli sport turlaridan biriga aylantirish, uning halollik, adolatlilik, bag‘rikenglik kabi insonparvar g‘oyalarini dunyo ahliga yanada keng targ‘ib qilish”¹ vazifalari belgilab berilgan. Aynan shu jihatdan, mashg‘ulot jarayonini tuzishda yillik jismoniy tayyorgarlik bosqichlarida yuklamalarni optimallashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Belbog‘li kurashchilarning texnik-taktik harakatlarini ro‘yobga chiqarish va takomillashtirish uchun professional sportga yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni tayyorlashda yuklamalarning organizmga ko‘rsatadigan ta’siri bo‘yicha qayta tiklanish va

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-oktabrdagi “Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3306-son, 2020-yil 4-noyabrdagi “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4881-son Qarorlari.

mashg'ulotni kompleks nazorat qilish talabi qo'yilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368-son Farmoni, 2017-yil 2-oktabrdagi "Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3306-son, 2020-yil 4-noyabrdagi "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4881-son Qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-martdagi "Sport turlari bo'yicha terma jamoalar tarkibiga sportchilarni saralab olish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 122-son qarori va sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga bog'liq holda amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yurtimizda malakali belbog'li kurashchilarning musobaqa oldi tayyorgarligi o'quv yuklamalar borasidagi muommalarni bartaraf etish yuzasidan ko'plab amaliy tavsiyalar va ilmiy ishlar ishlab chiqilmoqda. Bu borada belbog'li kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish maqsadida mashg'ulot va musobaqa faoliyati jarayonida jismoniy va texnik-taktik tayyorgarlik bo'yicha mamlakatimiz olimlari tomonidan bir qancha ilmiy va tavsiyalar ishlab chiqilmoqda. A.N.Abdiyev, F.A.Kerimov, N.A.Tastanov, R.D.Xalmuxamedov, Z.A.Bakiev, S.S.Tajibayev, K.B.Muxammadiyev, Sh.A.Mirzaqulov, A.R.Taymuradov, Z.S.Artiqov, I.B.Aliyev, Sh.S.Mirzanov, O.J.Dadabayev, M.M.Qirg'izboyev, B.X.Xoliqovlar² va boshqa olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida V.N. Platonov V.P.Filin, L.P.Matveyev, L.P.Volkov, G.S.Tumanyan, V.I.Lyax, S.V.Styepanov,³ tomonidan ilmiy o'rganilgan. Ammo ushbu o'rganilgan dissertatsiya va ilmiy adabiyotlarda

²Абдиев А.Н. Научно-педагогические основы формирования профессиональных умений тренера у студентов, специализирующихся в видах спортивных единоборств: Автореф. дис. д-ра. пед. наук. –Т., 2004. -51 с.; Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва усулияти. –Т.: ЎзДЖТИ, 2005. -245 б.; Тастанов Н.А. Индивидуализация технико-тактической подготовки борцов на основе автоматизированного анализа соревновательной деятельности. Педагогик таълим. –Тошкент: 2008. -70 с.; Халмухамедов Р.Д. Технология подготовки единоборцев этапа годичного цикла. –Тошкент, 2009. -267 с.; Бакиев З.А. Индивидуализация технико-тактической подготовки борцов на основе автоматизированного анализа соревновательной деятельности. –Ташкент: УзГИФК. 2009. -131 с.; Тажибаев С.С. Ёш яккакурашчиларни кўп йиллик тайёргарлик жараёнининг турли босқичларида саралашнинг меъёрлари. Ўқув-услубий кўлланма. ЎзДЖТИ., 2013. -166 б.; Мирзакулов .Ш.А. Белбогли кураш назарияси ва услубиоти. –Тошкент, 2013. Б -125-130.; Таймуратов А.Р. Курашчиларга хос куч турлари ва уларни ривожлантирувчи машқлар таснифи. Ж.:“Фан-спортга”, – Т., 2016. Б -29-32; Артиков З.С. Белбогли курашда статик ва динамик кучланиш давомида мувозанат сақлаш функциясини шакллантириш методикаси//Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори: дисс.автореф., ОАК ЎзР 13.00.04., Чирчик. ЎзДЖТСУ. 2019. -127 б.; Алиев И.Б. Курашда кўп йиллик тайёргарлик босқичларида машғулот юқламаларини оптималлаштиришнинг илмий-назарий асослари. Монография. “Ўзкитобсавдонашриёти”. 2020. -128 б.; Мирзанов Ш.С. Белбогли курашчиларда куч қобилятини изокинетик машқлар ёрдамида ривожлантиришнинг баҳолаш методикаси. Монография. «ЛЕССОН ПРЕСС» МЧЖ нашриёти, 2020. -130 б.; Дадабаев О.Ж. Дзюдочиларнинг кўп йиллик тайёргарлиги концепцияси. Дессиртация. 2021. -230 б.; М.М.Қирғизбоев. Белбогли курашда бўғимлараро эгилувчанликнинг устуворлиги ва уни ихтисослаштирилган тартибда ривожлантириш методикаси. Автореф. дис.2021 -161 б.; Холиков Б.Х. Малакали курашчиларнинг техник-тактик ва жисмоний тайёргарлигини оптималлаштириш технологияси. Автореф. дис. 2023. -75 б.;

³Платонов В.Н. Современная спортивная тренировка. —К.: Здоровье, 1980. -336 с.; В.П.Филин. Спортивная подготовка как многолетний процесс. // Современная система спортивной подготовки. – М.: САМ, 1995.- 112 с.; Л.П.Матвеев. Основы общей теории спорта и системы подготовки спортсменов. –Киев, 1999. – 316с.; Л.П.Волков. Теория и методика детского и юношеского спорта. – Киев: Олимпийская литература, 2002. -294 с.; Г.С.Туманян. Школа мастерства борцов, дзюдоистов и самбистов / учебное пособие / – М.: Академия, 2006.- 592с.; В.И.Лях. Координационные способности: диагностика и развитие. – М.: ТВТ Дивизион, 2006. – 290 с; С.В.Степанов, Е.В.Головухин. Единоборства как средство развития личности. – Екатеринбург: Альфа Принт, 2018. -649 с.

malakali belbog‘li kurashchilarning musobaqa oldi tayyorgarligi mashg‘ulot yuklamalari to‘g‘risida yetarlicha ma‘lumotlar berilmagan.

Jahonning ko‘plab mamlakatlari olimlari tomonidan belbog‘li kurashchilarning o‘ziga xos texnik tayyorgarlik xususiyatlariga mos tartibda rivojlantirishga doir keng qamroli nazariy jihatlar E.T.Kleminer, V.M.Igumenov, V.F.Boyko, G.F.Danko, B.A.Podlivayev, D.G.Mindiashvililar⁴ tomonidan batafsil o‘rganilganligi ahamiyatli.

Yuqoridagi fikrlarga tayanib xulosa qilish mumkinki, malakali belbog‘li kurashchilarning texnik-taktik va jismoniy tayyorgarligi, mashg‘ulot yuklamalarini optimallashtirish dasturlarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy-uslubiy ma‘lumotlar va xulosalar mazkur muammo bo‘yicha tadqiqotlarning yetarli emasligi tanlangan mavzuning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari konsepsiyasi va istiqbolli rejasidagi V.1/34 “Kurash sport ta‘lim muassasalari mashg‘ulotlarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi belbog‘li kurashchilarning musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichidagi o‘quv yuklamalarini rejalashtirishda texnik-taktik harakatlarni optimallashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

belbog‘li kurashda mezosikl tarkibidagi hajmli va shiddatli mikrosikllarda musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichiga nisbatan vaziyatlarni modellashtirish;

belbog‘li kurashchilarni musobaqa oldi tayyorgarligi davrida aldamchi harakatlarga o‘rgatish orqali bellashuvlardagi taktik harakat elementlarini takomillashtirish;

belbog‘li kurashchilarni musobaqa bellashuvlarida qiyin vaziyatlardan chiqishga o‘rgatishda, noqulay tarafdin usullarga kirishi asosida “shoh” usul bilan yakunlanadigan qarshi hujum usullari ketma-ketligini kombinatsiyalash;

belbog‘li kurashchilarning musobaqa oldi tayyorgarlik davrida hujum harakatlarini takomillashtirish uchun texnik-taktik harakatlarni bajarishda har bir holatga tanlab yo‘naltirilgan maxsus mashqlarni qo‘llash hisobiga bellashuvga tayyorgarlik taktikasini shakllantirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida belbog‘li kurash ixtisosligi bo‘yicha tahsil oluvchi talabalarning mashg‘ulot jarayonlari olingan.

Tadqiqotning predmetini O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti belbog‘li kurash ixtisosligida tahsil oluvchi talabalarning mashg‘ulot jarayonlaridagi musobaqa oldi tayyorgarlik davri maxsus mashqlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda maxsus ilmiy va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, so‘rovnomalar, pedagogik kuzatuvlar, pedagogik test, pedagogik tajriba, matematik-statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

⁴ Kleminer E.T. Time uncertainty in simple reaction time. J.Vop.1. Psychology. 1976. -513 s.; Igumenov V.M. Стандартизация средств и методов контроля за физической подготовленностью борцов старших разрядов. 1987. -189 с.; Бойко В. Ф. Управление и контроль в тренировочном процессе борцов. -К.: УГУФВС, 1997. – 50 с.; Данко Г.В. Физическая подготовка борцов. - К.: Олимпийская литература, 2004. – 223 с.; Б. А. Подливаев. Вольная борьба. Планы тренировочных занятий годичного обучения. 2012. -512 с.; Mindiashvili D.G. About Academy of Wrestling Named After Activities Optimization Methods. 2023. P -255-262.;

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

belbog‘li kurashda mezosikl tarkibidagi hajmli va shiddatli mikrosikllarda usullarni qarshiliksiz katta hajmda bajartirish hamda musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichida kichik hajmda yuqori shiddatli musobaqa vaziyatlarini qisman moddellashtirish hisobiga texnik usullar takomillashtirilgan;

belbog‘li kurashda murakkab hujum harakatlarini boshlashdan oldin chalg‘ituvchi harakatlar variantini qo‘llab, raqib hujumini buzish orqali qulay dinamik holatni shakllantirishga qaratilgan taktik harakat elementlarini kiritish hisobiga bellashuvni o‘z foydasiga hal qilish imkoniyati oshirilgan;

belbog‘li kurashchilarni musobaqa oldi mezotsiklida tayyorgarlik uchun asosiy tayanch usullarini qo‘llashda dastlab himoyalanih orqali qulay vaziyatda qarshi hujum usullari ketma-ketligini kombinatsiyalash (“shoh” usulni qo‘llab o‘ng tomonga hujum qilish qulay bo‘lgan sportchilarga nisbatan chap tarafdin hujumni boshlash) hisobiga musobaqalarda texnik usullarni noqulay tarafga bajarish imkoniyati oshirilgan;

umumiy tayyorgarlik bosqichida jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan katta hajmdagi ishini samarali bajarish uchun belbog‘li kurashchilarga ko‘proq taalluqli sifatlarni tarbiyalash va usullarni bajarishda yuqori darajada ishtirok etuvchi mushak guruhlarini tanlab rivojlantirish hisobiga kurashchilarning musobaqa faoliyatida bajaradigan asosiy harakatlari takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

malakali belbog‘li kurashchilarning musobaqa oldi tayyorgarligidagi mashg‘ulot yuklamalarini, umumiy va maxsus jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, texnik-taktik tayyorgarlik darajasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan o‘quv-mashg‘ulot jarayonida yuklamalar kattaliklari doimiy ravishda nazorat qilib borilgan va musobaqa faoliyatida sezilarli darajada imkoniyatlari oshirilgan;

malakali belbog‘li kurashchilarning musobaqa oldi tayyorgarligidagi mashg‘ulot yuklamalarini noan‘anaviy shaklda rejalashtirish orqali ularning dam olish oraliqlari va umumiy hamda maxsus qobiliyatlari asta-sekinlik bilan oshirib borilgan;

mashg‘ulot jarayonlaridagi hajm va shiddatning to‘g‘ri yo‘naltirilish xususiyatlari orqali belbog‘li kurashchilar organizmida ijobiy o‘zgarish hamda o‘sish kuzatilgan;

murabbiylar uchun musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichidagi mashg‘ulotda uslub va vositalarni qo‘llash bo‘yicha amaliy tavsiyalar tayyorlanib, ular tajriba tekshiruvidan o‘tkazilgan va mashg‘ulot jarayoniga tatbiq qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot davomida olingan natijalar nazariy-uslubiy jihatdan asoslangan, ilmiy tadqiqotda tajriba olib borilganligi, uning mantiqiy yondashuvga ega ekanligi, tanlangan uslublarning tadqiqot maqsadi va vazifalariga to‘la mos kelishi, mahalliy va xorijiy olimlarning xulosa va tavsiyalari bilan asoslanganligi, dissertatsiyada keltirilgan amaliy taklif va tavsiyalar malakali belbog‘li kurashchilarning musobaqa oldi tayyorgarligi bosqichidagi mashg‘ulotlar va nazorat mashqlari natijalarini vakolatli davlat

organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati. Malakali belbog‘li kurashchilarning umumiy va maxsus jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, texnik-taktik tayyorgarliklari darajasini takomillashtirish bo‘yicha mashqlar majmuasini qo‘llash orqali musobaqa faoliyatida yuqori natijalarga erishish imkoniyatlarini oshirishga yo‘naltirilgan metodikaning takomillashtirilganligi, ularning ilmiy-uslubiy ahamiyatining ochib berilganligi hamda mazkur uslublar doirasida malakali belbog‘li kurashchilar uchun musobaqa oldi tayyorgarlik yuklamalarining optimal nisbatlarining muhimligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Malakali belbog‘li kurashchilarning musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichidagi mikrotsikl va mezotsikllarda olib borilgan mashg‘ulot uslublari, vositalari, yo‘nalishlari shug‘ullanuvchilarning har tomonlama samarali rivojlanishiga imkon berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:

belbog‘li kurashda mezosikl tarkibidagi hajmli va shiddatli mikrosikllarda usullarni qarshiliksiz katta hajmda bajaritirish hamda musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichida kichik hajmda yuqori shiddatda musobaqa vaziyatlarini moddellashtirish bo‘yicha takliflar Respublika Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi belbog‘li kurashchilarning o‘quv-mashg‘ulot jarayonlariga tadbiq qilingan (O‘zbekiston respublikasi yoshlar siyosati va sport vazirligi 04-01/04/20/8183-son ma‘lumotnomasi). Natijada o‘quv-mashg‘ulotlar jarayoniga “Tizza yordamida ko‘tarib tashlash” usuli 14,1-16,8 % ga samaradorligiga erishilgan;

belbog‘li kurashda murakkab hujum harakatlarini boshlashdan oldin chalg‘ituvchi harakatlar variantini qo‘llab, raqib hujumini buzish orqali qulay dinamik holatni shakllantirishga qaratilgan taktik harakat elementlarini qo‘llash bo‘yicha nazariy-amaliy ma‘lumotlar “Belbog‘li kurash nazariyasi va uslubiyati” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022-yil 17-martdagi 106-sonli buyrug‘iga asosan 106-018 raqamli guvohnoma). Natijada, o‘quv-mashg‘ulotlar jarayonida “Ko‘krakdan oshirib tashlash” usulini bajarish samaradorligi 13,7-16,4% ga oshirilgan;

belbog‘li kurashchilarni musobaqa oldi mezotsiklida tayyorlash uchun asosiy tayanch usullarni qo‘llashda dastlab himoyalanih orqali qulay vaziyatda qarshi hujum usullari ketma-ketligini kombinatsiyalash bo‘yicha takliflar Chirchiq shahar sport maktabidagi belbog‘li kurashchilarning mashg‘ulotlari jarayoniga tatbiq qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 04-01/04/20/8183-son ma‘lumotnomasi). Natijada, “Tizza yordamida to‘sib tashlash” usulini bajarish samaradorligini 13,6-15,9% ga oshirishga erishilgan;

umumiy tayyorgarlik bosqichida jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan katta hajmdagi ishni samarali bajarish uchun belbog‘li kurashchilarga ko‘proq taalluqli sifatlarni tarbiyalash, oshirish va usullarni bajarishda yuqori darajada ishtirok etuvchi mushak guruhlarini tanlab rivojlantirish bo‘yicha takliflar “Belbog‘li kurash nazariyasi va uslubiyati” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022-yil 17-martdagi 106-sonli buyrug‘iga asosan 106-018 raqamli guvohnoma). Natijada, texnik harakatlarni bajarish uchun asosiy jismoniy sifat 19% ga yaxshilangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyiyasi. 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy-uslubiy ish, shu jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan mahalliy jurnallarda 4 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi 139 komp'yuter matnida bayon etilgan bo'lib, kirish, 4 ta bob 13 ta rasm, 29 ta jadval, xulosalar, amaliy tavsiyalar, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar haqida umumiy ma'lumot, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, dissertatsiya ishining respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga muvofiqligi, ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, uning nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, e'lon qilinganligi, tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Belbog‘li kurashchilarning musobaqa oldi tayyorgarlik yuklamalarni rejalashtirish bo‘yich adabiyotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobidagi o'rganilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, so'ngi yillarda malakali belbog‘li kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini optimallashtirishga qaratilgan tadqiqotlarga katta e'tibor qaratilgan. Jumladan, belbog‘li kurashchilarning texnik tayyorgarlik komponentlariga bog‘liq holda ular jismoniy rivojlantirishning ilmiy, nazariy va uslubiy asoslari yetakchi mutaxassis-olimlar (V.P.Filin, L.P.Matveyev, L.P.Volkov, Y.V.Verxoshanskiy, G.S.Tumanyan, Y.F.Kuramshin, V.N.Platonov, M.A.Godik, J.K.Xolodov, V.S.Kuznesov, V.F.Boyko, G.V.Danko) ning fundamental tadqiqotlariga muvofiq ochib berilgan. Shuningdek kurash turilari bo'yicha yuqori malakali sportchilarni tayyorlash tizimida jismoniy sifatlarning ustuvorligi, ularni o'ziga xos texnik jixatlari hamda usullarini xususiyatlariga mos tartibda rivojlantirishga doir va global masalalar V.F.Boyko, G.F.Danko, B.A.Podlivayev, V.M.Igumenov, A.A.Karelin, D.G.Mindiashvili, V.V.Nelyubin, F.A.Kerimov, N.A.Tastanovlar tomonidan malakali kurashchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini optimallashtirish, jismoniy tayyorgarlik bosqichlarining mashg'ulotlari kattaligi, yo'nalish tizimlarini takomillashtirish, maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirish, samaradorligini oshirish, mikrotsikllarda mashg'ulotlarni ratsional almashtirib o'tkazishga oid qonuniyatlar va uslublar aniqlandi.

Malakali belbog‘li kurashchilarni tayyorlashda yuklamalarning kattaligi va yo'nalishiga ko'ra mashg'ulotlarni ratsional almashtirish, tajriba natijasi ko'rsatkichlari asosida amaliyotda tanlangan yo'nalish dasturiga muvofiq tuzilgan mikrotsikllar yordamida sportchilarning maxsus ish qobiliyatini, sport natijalarining jiddiy ko'tarilishini ta'minlab berishi aniqlangan. Belbog‘li kurash bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarini o'rganish natijasida bu sohadagi terma jamoa murabbiylari uchun belbog‘li kurashchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarini optimallashtirishga qaratilgan mashg'ulotlarni o'tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan mikrotsikl variantlari ishlab chiqilib, uning ilmiy asoslanganligi va boshqarish imkoniyati yaratilganligi asoslandi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot usullari va uni tashkil etish”** deb nomlangan ikkinchi bobida tajribalar davomida qo‘llanilgan ilmiy tadqiqot usullari, jumladan, maxsus ilmiy va uslubiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish va umumlashtirish, belbog‘li kurashchilarni musobaqa oldi tayyorgarligida texnik-taktik, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik darajalari aniqlab olindi. O‘quv-mashg‘ulot jarayonini pedagogik nazorat qilish, pedagogik test o‘tkazish, pedagogik tajriba, tadqiqot natijalarini matematik statistika usullari yordamida qayta ishlash yo‘llari bayon etilgan. Dissertatsion tadqiqotd 3 bosqichda olib borildi:

birinchi – analitik va metodik bosqich (2021-2022-yillar) – mahalliy va xorijiy adabiyotlarida mazkur mavzu doirasidagi ilmiy muammolarning holatini va mavzuning rivojlanish darajasini o‘rganildi va ilmiy apparat xamda tadqiqot dasturlarini belgilash, ishchi farazni yaratish masalalari tizimli o‘rganilib tahlil qilindi;


ikkinchi – bosqichda tadqiqotni loyihalashtirish va amalga oshirish bosqichi (2022-2023-yillar) – Chirchiq sport maktabi va Chirchiq olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi mashg‘ulot jarayoni uchun dastur modelini ishlab chiqish va amalyotga tatbiq etish, ta’lim mazmunini pedagogik modellashtirish uchun mezon va ko‘rsatkichlar tizimini belgilash, tadqiqot ishlarni olib borish, xamda ilmiy farazni takomillashtirish amalga oshirildi;

uchinchi – bosqichda nazorat va tajribaga qarqtilgan bo‘lib (2023-yil) – olingan tadqiqot natijalari diagrammasi ishlab chiqildi va tadqiqotning matematik statistik natijalari shakllantirildi va ta’lim mazmunini pedagogik modellashtirish uchun ishlab chiqilgan mezon va tizim ko‘rsatkichlariga mos ravishda baholandi.

Dissertatsiyaning **“Belbog‘li kurashchilarning musobaqa oldi tayyorgarlik davridagi texnik-taktik harakatlarini takomillashish jarayoni”** deb nomlangan uchinchi bobida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari tahlil qilindi. Mavjud manbalarni tahlil qilish natijasida, yuqori malakali belbog‘li kurashchi sportchilarni tayyorlash jarayonida jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarni ilmiy asoslangan holda tashkil etish tadqiqot amaliyoti talab darajasida yo‘lga qo‘yilmagan. Shu sababli, dissertatsiya tadqiqot boshqa sport turlarida olib borilgan tajriba natijalariga tayangan holda, ilmiy-uslubiy jihatdan asoslangan yangi usullarni mashg‘ulot jarayoniga kiritishni maqsad qildik, sport amaliyotidagi ilg‘or tajribalarni o‘rganish natijasida, kurash mutaxassislari tomonidan mashg‘ulotlarni rejalashtirish yo‘nalishida kompleks ta’sir qiluvchi mashg‘ulotlardan foydalanish masalasi ko‘rib chiqildi, mashg‘ulotlarning dastlabki vazifalarini bir tomonlama hal qilinish hamda belglangan vazifalar tarkibi borgan sari kengayib borishi aniqlandi.

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun belbog‘li kurashchilarda jismoniy qobiliyatlarni oshirishning mavjud omillaridan biri sifatidagi maxsus tayyorgarlik bosqichlarida keng qo‘llanuvchi mashqlar tizimlashtirildi.

Mashg‘ulotlar sonini izchillik bilan oshirish usublari ishlab chiqilib, maxsus mashg‘ulotlardan so‘ng rivojlanish holatlariga faol ta’siri etuvchi jihatlari aniqlandi. Tadqiqot davomida jismoniy sifatlarni maxsus mashqlar yordamida yuklamalar berildi hamda ularning jismoniy va funksional xolatga ijobiy ta’siri aniqlandi. Jumladan, belbog‘li kurashchilar mashg‘ulotlarida foydalanilgan yuklamalarining ta’sir yo‘nalishi aniqlab olingan natijalarning ishonarliligi aniqlandi.



1-rasm. Belbog‘li kurashchilarning 2022-2023 o‘quv yilidagi asosiy va qo‘shimcha musobaqalar rejas

Musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichlarida belbog‘li kurashchilarning tayyorgarligi samaradorligini oshirishda mashg‘ulotlar davomida yuklamalarni ilmiy asoslanib rejalashtirish hamda nazorat qilishni taqozo etadi. Shu sababli tadqiqot ishimizda 2023-yil may oyidagi O‘zbekiston chempionati va iyun oyidagi Jahon chempionatiga tadqiqotga jalb eqilingan tajriba guruhi shug‘uvlanuchilar uchun asosiy musobaqa sifatida belgilab oldik. Ishlab chiqilgan dasturga tayanib barcha tayyorgarlikni shu musobaqaning tahliliy natijasiga qaratdik. Rejadagi musobaqalar taqvimga tayanib kurashchilarning eng yuqori sport tayyorgarligiga olib chiqish, ular organizmida tiklanishi va yuklamalar tizimining bir-biriga mofiq kelishini ta‘minlash, tayyorgarlik bosqichlarini to‘g‘ri taqsimlash va tahlil qilish hamda ularning musobaqa oldi tayyorgarligiga e‘tibor qaratish zarurligi asosiy maqsat sifatida belgilab oldik. O‘zbekiston belbog‘li kurash federatsiyasining 2022-2023 yilgi musobaqalar taqvimi rejasiga muvofiq belglangan asosiy va qo‘shimcha musobaqalar rejasini asosiy musobaqa oldi tayyorgarlik dasturi ishlab chiqdik. **(1-rasmga qarang)**

Tadqiqotimiz umumiy tayyorgarlik bosqichida asosiy e‘tibor belbog‘li kurashchilarning har tomonlama jismoniy va funksional rivojlanishi hamda ularning organizmini keyingi bosqichlardagi yuklamalarga moslashtirishga etibor qaratdik. Chunonchi umumiy tayyorgarlik bosqichi 3 ta mikrosikldan iborat bo‘lib, unda umumiy tayyorgarlik mazmuni belbog‘li kurashchilarning funksional imkoniyatlarni oshirishga, jismoniy sifatlarni rivojlantirishga va jismoniy tayyorgarlik nisbatlarini sezilarli darajada ortib borishiga erishildi. Belbog‘li kurashchilarning musobaqa oldi va umumiy tayyorgarlik bosqichiga qarqtilgan mikrosikllar dasturidagi ko‘rsatkichlarga tayanib aytishimiz mumkunki xaftalar

ketma ketligidagi 3 ta bosqichda xam olingan natijalar bir biriga ishonarli tarzda ekanligi isbotlandi. Masalan mashg'ulotlarning umumiy sonidan kelib chiqan holda kunlik mashg'ulotlar davomilgini 90 daqiqadan iborat bo'lib yakuniy hajmi 270 daqiqani tashkil etdi. Mosravishda mashg'ulot davomiligining o'rtacha ko'rsatkichi har bir bosqichda 990 daqiqadan iborat bo'lib jami 2880 daq tashkil etdi. Xuddi shuningdek UJT ning ulushi umumiy mikrosikllarning jami daqiqaning 33% 965 daqni tashdil etdi. Bu ko'rsatkichlar MJT va TTT ulushida ham bir-biriga mos ravishda MJT 30%, 920 va TTT 37%, 990 ni tashkil etdi. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan mazkur uslub samarali ekanligi isbotlandi. Malakali belbog'li kurashchilar musobaqa oldi tayyorgarligining birinchi bosqichi umumiy tayyorgarlik vositasi bo'lib, unda jismoniy sifatlarni rivojlantirish va keng ko'lamli musobaqa natijadorligini oshirishga qaratildi. **(1-jadvalga qarang)**

1-jadval

Belbog'li kurashchilarning musobaqa oldi va umumiy tayyorgarlik bosqichiga qaratilgan mikrosikllar dasturi

№	Mikrosikl ko'rsatkichlar	Haftalar			Jami bosqichda
		I	II	III	
1.	Mashg'ulotlar soni	11ta	10ta	11ta	32ta
2.	Kunlik mashg'ulotning o'rtacha davomiyligi (daq.)	90	90	90	270
3.	Mashg'ulot davomiyligining o'rtacha ko'rsatkichi (daq.)	990	900	990	2880
4.	UJT ulushi (% ,daq.)	35%, 335	35%, 310	30%, 320	33%, 965
5.	MJT ulushi (% ,daq.)	31%, 325	30%, 280	30%, 320	30%, 920
6.	TTT ulushi (% ,daq.)	33%, 330	35%, 310	40%, 350	37%, 990
	Ruhiy, emotsional nazariy tayyorgarlik	Mazkur tayyorgarlik turlari mashg'ulot yo'nalishiga muvofiq olib borildi			
Jami					2880 daq

Izoh: UJT (umumiy jismoniy tayyorgarlik) MJT(maxsus jismoniy tayyorgarlik) TTT (texnik-taktik tayyorgarlik)

Maxsus tayyorgarlik bosqichining asosiy maqsadi belbog'li kurashchilarning maxsus bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishga qaratilib bunda jismoniy tayyorgarlik bilan birgalikda texnik-taktik tayyorgarlik o'ziga xos ravishda olib borildi.

Maskur maxsus tayyorgarlik bosqichi 4 ta mikrosikldan iborat bo'lib, 1-va 2-mikrosikllar bir-birining umumiy tayyorgarlik mazmunidan keskin farq qilmadi. Ammo 3- hamda 4-mikrosikllarda texnik-taktik va jismoniy tayyorgarlik nisbatlari sezilarli darajada o'zgardi. Masalan mashg'ulotlarning umumiy sonidan kelib chiqan holda kunlik mashg'ulotlar davomilgini 90 daqiqadan iborat bo'lib to'rtinchi haftasika kelib 135daqga oshirildi yakuniy hajmi 536 daqiqani tashkil etdi. Mashg'ulotni olib borishda davomiligining o'rtacha ko'rsatkichi har bir bosqichda 990 daqiqadan iborat bo'lib to'rtinchi haftasika kelib esa 1350 daqiqani ko'rsatdi va jami 4320 daq tashkil etdi. Ikkinchi bosqichga kelib MJT ning ulushi umumiy mikrosikllarning jami daqiqaning 36% 1560 daqni tashdil etdi. **(2-jadvalga qarang)**

Belbog‘li kurashchilar musobaqa oldi va maxsus tayyorgarlik bosqichiga qaratilgan mikrosikllar taqvimini

№	Mikrosikl ko‘rsatkichlar	Haftalar				Jami bosqichda
		I	II	III	IV	
1	Mashg‘ulotlar soni	11ta	11ta	11ta	10ta	43ta
2	Kunlik mashg‘ulotning o‘rtacha davomiyligi (daq.)	90	90	90	135	536
3	Mashg‘ulot davomiyligining o‘rtacha ko‘rsatkichi (daq.)	990	990	990	1350	4320
4	UJT ulushi (% ,daq.)	30%, 310	30%, 310	20%, 260	20%, 290	23,75%,1170
5	MJT ulushi (% ,daq.)	30%, 335	30%, 335	40%,360	40%,530	36,25%,1560
6	TTT ulushi (% ,daq.)	40%,345	40%,345	40%,370	40%,530	40%,1590
7	Ruhiy, emotsional nazariy tayyorgarlik	Mazkur tayyorgarlik turlari mashg‘ulot yo‘nalishiga muvofiq olib borildi				
Jami						4320 daq

Izoh: UJT (umumiy jismoniy tayyorgarlik) MJT(maxsus jismoniy tayyorgarlik) TTT (texnik-taktik tayyorgarlik)

Musobaqa oldi tayyorgarligida qo‘llanilgan oxirgi maxsus tayyorgarligi mikrosikl bosqichi, bo‘lib u 2 ta mikrosikldan iborat. Belbog‘li kurashchilarning maxsus musobaqa tayyorgarligidagi imkoniyatlari oshirib borildi va mashg‘ulot yuklamalari mazmunini optimallashtirildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tayyorgarlik jarayonida umumiy va maxsus tayyorgarlik nisbatlari o‘zgarib bordi. Musobaqa yaqinlashgan sari maxsus musobaqa tayyorgarlik ulushi ortib boradi va bu jarayonda o‘quv-mashg‘ulot bellashuvlari eng asosiy tayyorgarlik mashqi sifatida qo‘llanildi. Maxsus musobaqa tayyorgarlik bosqichida mashg‘ulotda berib borilgan yuklama hajmini kamaytirib, uni shiddati oshirib borildi.(3-jadvalga qarang)

Belbog‘li kurashchilar musobaqa oldi va maxsus musobaqa tayyorgarligi mikrosikllar xususiyatlari

	Mikrosikl ko‘rsatkichlar	Haftalar		Jami bosqichda
		I	II	
1	Mashg‘ulotlar soni	11ta	11ta	22ta
2	Kunlik mashg‘ulotning o‘rtacha davomiyligi (daq.)	90	90	180
3	Mashg‘ulot davomiyligining o‘rtacha ko‘rsatkichi (daq.)	990	990	1980
4	UJT ulushi (% ,daq.)	30%, 320	30%, 320	30%, 640
5	MJT ulushi (% ,daq.)	30%, 320	30%, 320	30%, 640
6	TTT ulushi (% ,daq.)	40%, 350	40%, 350	40%, 700
7	Ruhiy, emotsional nazariy tayyorgarlik	Mazkur tayyorgarlik turlari mashg‘ulot yo‘nalishiga muvofiq olib borildi		
Jami				2035

Izoh: UJT (umumiy jismoniy tayyorgarlik) MJT(maxsus jismoniy tayyorgarlik) TTT (texnik-taktik tayyorgarlik)

Musobaqa oldi va umumiy tayyorgarlik bosqichida belbog‘li kurashchilarning jismoniy sifatlari texnik-taktik mahorat oshirilgan holda musobaqalarga tayyorlab borildi. Shuningdek belbog‘li kurashchilarning asosiy faoliyati harakat malakasini takomillashtirishga qaratildi.

Musobaqa oldi umumiy tayyorgarlik bosqichida mashg'ulot yuklmalarni bajarishda 1-daqiqa davomida YuQS 126-160 oralg'ida qayt etildi. Mashg'ulot kattaligi 690 dan 750 gacha bo'lgan hajmli yuklama kattaligi hafta davomida to'liqsimon shakilda berib borildi. Shundan kelib chiqib, musobaqa oldi tayyorgarligida va musobaqa faoliyatida muvaffaqiyatga erishish muhim darajada umumiy tayyorgarlik bosqichidagi aralash, aerob-anaerob tizimida asosan umumiy chidamlilka qaratilgan mashg'ulotlar olib borildi. Tadqiqot davomida musobaqa oldi va umumiy tayyorgarlik bosqichida mashg'ulotlarni aylanma, o'zgaruvchan, o'yin, uslublarida olib borildi. Musobaqa oldi va maxsus tayyorgarlik bosqichida mashg'ulot yuklmalarni bajarishda 1-daqiqada YuQS 154 dan 186 gacha bo'lgan oraliqda yurak qisqarishga erishildi. 730 dan 790 hajmdagi yuklama kattaligi hafta to'liqsimon shakilda berib borildi. Maxsus musobaqa tayyorgarlik bosqichida asosan mashg'ulotdagi umumiy yuk kattaligi 770-dan 620-gacha asta-sekin kamaytirib borildi. Mashg'ulot jarayonidagi bellashular musobaqa muxitidagidek tashkil qilindi. III-shiddat zonasida yuqori suratlarda bellashular olib borildi. Bunday bellashu olib borish musobaqada samarali natijalar berishi o'z isbotni topdi. **(4-jadvalga qarang)**

4-jadval


Musobaqa oldi tayyorgarligi bosqichida mikrosikllar xususiyatlari

№	Musobaqa oldi umumiy tayyorgarlik bosqichida mikrosikllar xususiyatlari			Musobaqa oldi maxsus tayyorgarlik bosqichida mikrosikllar xususiyatlari				Musobaqa oldi maxsus musobaqa tayyorgarligi mikrosikllar xususiyatlari	
	1-hafta	2-hafta	3-hafta	1-hafta	2-hafta	3-hafta	4-hafta	1-hafta	2-hafta
Yuklama kattaligi	690-720	710-730	730-750	730-750	740-770	740-780	750-790	770-720	690-620
Yuklama yo'nalishi	Anaerob	Anaerob	Aralash aerob-anaerob	Anaerob	Aralash aerob-anaerob	Aralash aerob-anaerob	Aralash aerob-anaerob	Aralash aerob-anaerob	Aralash aerob-anaerob
Uslublar	aylanma, o'zgaruvchan, o'yin,	aylanma, o'zgaruvchan, o'yin,	aylanma, o'zgaruvchan, o'yin,	takroriy, aylanma, o'zgaruvchan	takroriy, aylanma, o'zgaruvchan	takroriy, aylanma, o'zgaruvchan	takroriy, aylanma, o'zgaruvchan	Musobaqa, takroriy, aylanma,	Musobaqa, takroriy, aylanma,

Musobaqa oldi bosqichining maxsus tayyorgarligida yuklamalar hajmning xususiyatlari, tayyorgarlikning uchinchi bosqichga kelib hajmning kamayishidan va shiddatning tobora yuksalishidan iborat bo'ldi. Ammo musobaqa oldi va ularga yaqin bo'lgan maxsus tayyorlov mashqlari bundan istisnodir. Asosan musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichining maxsus tayyorgarlik sohasida mashqlar absolyut shiddatning tezlik, sur'ati, kuchlanshi va boshqa ko'rsatkichlarning ortishi bilan birga mashg'ulotning nisbiy shiddati ham yuksalib boradi. Mashg'ulot shiddatning o'sib borishi va hajmining kamayishi natijasida, ikkinchi bosqichda yuklamalar ko'rsatkichining o'rta "to'liqin"lari odatda 3-4 haftagacha qisqaradi va 2-haftasidan musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichida moslashtiriladi. Biz tomonimizdan olib borilayotgan tadqiqotda O'zbekiston chempionatiga tayyorgarlik bosqichida 1-

haftasidan mashg'ulotlarning boshida 780-kattalikdagi yuklama bilan boshlab haftalik to'liqinsmon shakilda yuklamalarni berib bordik. 2-haftasidan mashg'ulot yuklamasining umumiy hajmi kamayib bordi.

Ammo III-shiddat zonasida bajariladigan bellashuvlar shiddatni oshirib borildi. 3 va 4 daqiqa oralig'ida boshlangan bellashular hafta oxiriga kelib 7 va 8 daqiqagacha ko'tarildi. Mashg'ulot shiddat oshirilganda YuQS 1-daqiqada 160-dan 186-gacha etdi. **(2-rasinga qarang)**




2-rasm. Musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichida haftalik hajmning kamayishi va shiddatning oshib borish ketma ketligi O'zbekiston chempionati

Tadqiqot davomida qo'llanilayotgan usullar belbog'li kurashchilarning O'zbekiston chempionati musobaqalardagi ishtirokidagi yaxshi natijalarga erishilishga olib keldi. Shuningdek jahon chempionati musobaqalariga tayyorgarlik bir qator murakkabligi bilan ajralib turadi. Bu tayyorgarlik mashg'ulotlarida turli murakkabliklarni oshirgan holda tashkil qilib borildi va bir nechta yo'nalishdagi mashqlarni bajarish ketma-ketligini hisobga olinib ular quyidagi tartibda qo'lanildi

-avval alaktat-anaerob (tezkor-kuch) so'ngra anaerob-glikolitik mashqlar (tezkor chidamliligiga qaratilgan mashqlar); - avval alaktat-anaerob, so'ngra aerob mashqlar (umumiy chidamlilikka qaratilgan mashqlar); - avval anaerob-glikolitik (kichik hajmda) so'ngra aerob mashqlar berib borildi. Shuningdek biz tomonimizdan qo'llanilayotgan usullar amaliy faoliyatda mashg'ulot jarayoni yo'nalishini quyidagicha tavsifladik: davomiylik va shiddatli, mashqlar o'rtasidagi dam olish oraliqlari va xususiyati hamda takrorlashlar soni va bajarilayotgan mashqning koordinatsion murakkabligiga qarab baholab borildi.

Maksimal shiddatda amma kichik hajmda bajariladigan mashqlar, odatda, tezkor-kuch sifatlarining rivojlantirib bordi huddi shunday, lekin katta hajmdagi yoki katta shiddat bilan 30-120 sek atrofida bajariladigan mashqlar tezkorlik chidamliligiga ta'sir ko'rsatadi. Biz jahon chempionatiga tayyorgarlik jarayonining yuklamalar hajmini maksimal darajagacha ko'tardik ammo shiddatni oshirishda III-shiddat zonasida bellashuvlarni 5-daqiqadan boshlab 25-daqiqagacha yetkazdik. Mashg'ulot davomida YuQS 160-dan 200 gacha ko'tarildi. **(3-rasmga qarang)**



3-rasm. Musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichida haftalik hajmning kamayishi va shiddatning oshib borish ketma ketligi Jahon chempionati

Mazkur mashg'ulot yuklamasini belbog'li kurashchilar organizmiga ta'sirining yo'nalishiga qarab ham aniqlash mumkin. Biz tadqiqotimiz mashg'ulotning shiddat vaqtini uch zonada o'rganib chiqdik: I-zona asosan aerob, YuQS –140-150: II-zona aralash: aerob – anaerob YuQS – 156-180 va III-zona – anaerob gilkalitik, anaerob alaktal YuQS-186 va undan yuqori bo'lgan holatga keldi.

Natijada 4-jadvalmizning 1-raqamlibelbog'li kurashchisi B.A mashg'ulotning I-zonada bajarilgan ishning umumiy vaqti 28 daq va umumiy vaqtning 30%ini, yuklama kattaligi esa, 36 shartli birlikni tashkil etdi. II-zonada mashg'ulot vaqti 52 daq va umumiy vaqtning 65% ini, yuklama kattaligi esa, 536 shartli birlikka teng bo'ldi. III-zonada sportchi 10 daq va umumiy vaqtning 10% ga teng ish bajardi, yuklama kattaligi esa, 210 shartli birlikni tashkil qildi. Belbog'li kurashchining mashg'ulot yuklamasi 782 ni tashkil etdi, bu holat katta yuklama sifatida tasniflanadi. Mashg'ulot yuklamasini kattaligini aniqlashda guruhdagi shugullanuchilarning yuklama kattaligini bir-biriga qo'shilsa va qancha ishtrokchi bo'lsa shunga bo'linsa bir mashg'ulotning umumiy yuklama kattaligi kelib chiqadi, bunday tahlil qilish mikrosiklda bajarilgan ish kattaligini aniqlashga imkon berdi. (5-jadvalga qarang)

**5-jadval
Malakali belbog'li kurashchilarning musobaqa oldi tayyorgarligida mashg'ulot yuklamaning kattaligini aniqlash**

№	F.I	Tayyorlov qismi badan qizdirish mashqlari. URM	Usullarni sust va o'rta sur'atda bajarishni takomillashtirish	Usullarni tez sur'atda bajarishni takomillashtirish	Usullarni qarshi hujumda takomillashtirish	O'quv-mashq bellashuvi (musobaqaga yaqin sharoitda)	B'yin, bel, oyoq son mushaklarini rivojlantirish uchun maxsus mashqlar	Jami
	Puls	130-145	145-170	156-180	156-180	186-198	120-130	
	Sh/Z	I	II	II	II	III	I	
	Ball	1-6	6-12	8-17	8-17	21-33	2-3	
								Jami

5-jadvalni davom

	Vaqt	20	12	20	20	10	8	90
1.	B.A .	19/1	26/8	27/10	28/12	31/21	20/2	782
2.	B. R .	20/2	24/6	26/8	28/12	31/21	21/3	746
3.	D. N.	19/1	25/7	26/8	29/14	30/17	19/1	792
4.	D. J .	20/1	26/8	27/10	29/14	29/14	20/2	712
5.	G ^o . G ^o .	21/3	27/10	26/8	29/14	31/21	21/3	754
6.	G ^o . Sh.	20/2	26/8	25/7	28/12	31/21	21/3	764
7.	H.M.	20/2	26/8	26/8	28/12	30/17	20/2	763
8.	H. E.	21/3	26/8	26/8	28/12	30/17	20/2	752
9.	I. T.	21/3	27/10	25/7	27/10	31/21	19/1	720
10.	I. A.	20/2	26/8	26/8	28/12	32/25	18/1	760
11.	J. A .	20/1	25/7	27/10	29/14	32/25	20/2	765
12.	T. X.	19/2	24/5	26/8	29/14	32/25	19/1	692
13.	M. Z.	18/1	25/7	30/17	29/14	30/17	20/2	798
14.	Sh. N .	20/2	26/8	26/8	28/12	32/25	19/1	730
15.	N. F .	20/2	26/8	24/6	28/12	30/17	19/1	674
16.	A.I.	21/3	27/10	25/7	29/14	30/17	21/3	775
17.	B. S.	19/1	26/8	26/8	28/12	31/21	19/1	782
18.	Sh. N.	20/2	27/10	27/10	27/10	31/21	19/1	668
							740 yuklama katalgi	

Izoh: F.I. (tajriba guruhi belbog'li kurashchilarining familiyasi va ismi qisqartmasi)

SH/Z(yuklamani bajarish shiddat zonasini)

Musobaqa oldi tayyorgarlik mashg'ulot rejasini tuzishda mikrosikllar bosqichdagi qo'yilgan vazifalarini kompleks ravishda yechishni ta'minlaydigan, bir necha kun davomida o'tkaziladigan mashg'ulotlar seriyasi tuzib olindi

Mashg'ulotlarni tuzishda asosan bir haftalik mikrosikl haftalik taqvim bilan mos kelib shug'ullanuvchilarining umumiy rejimiga mos holda ishlab chiqildi. Mikrosikllarning tuzilishi uning bosqichlaridagi vazifalariga qarab mashg'ulot jarayoniga bog'landi. Mashqlar tartibi asosiy va qo'shimcha musobaqalarga qarab ishlab chiqildi va mashg'ulotlardagi yuklama dam olish oraliqlariga asosan o'zgartirib borildi. Mikrosikllarning turlari va ularning alohida hususiyatlariga ko'ra mashg'ulot jarayonida quyidagilar belglab olindi: tortuvchi, zarbdor, yaqinlashtiruvchi, musobaqa oldi, musobaqaga tiklovchi va tayyorgarlik;

a) tortuvchi mikrosikl: katta bo'lmagan hajmdagi yuklamalardan iborat bo'lib, sportchi organizmini shiddatli mashg'ulotlarga kiritilishiga qaratilgan bo'ladi. Bular fundamental davr (umumtayyorgarlik) bosqichida qo'llanildi.

b) zarbali mikrosikl: katta hajmdagi yuklamani shiddatli bajarishga qaratilgan bo'lib bularning asosiy vazifasi kurashchilarning organizming moslashish jarayonini asosiy texnik va taktik, jismoniy axloqiy, irodaviy, maxsus psixologik hamda integral vazifalarni hal etib yordamlashishdan iborat bo'ldi.

v) yaqinlashtiruvchi (modelli) mikrosiklning: asosiy vazifasi musobaqaga yaqinlashtirishdan iboratligi bilan ahamiyatlidir.

d) musobaqa oldi mikrosikllari asosan texnik va taktik tayyorgarlik barqarorlik bilan olib borildi.

g) musobaqaga qayta tiklovchi mikrosiklda musobaqaga tiklanish tadbirlar olib borildi. **(6-jadvalga qarang)**

Mashg'ulot mikrosikllarning tuzilishi							
№	Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Shanba	Yaksh anba
Toruvchi	URM mashqlari 15-20 daq. Kuchni rivojlantiruvchi mashqlar 10-15 daq; Maxsus texnik usullarni bajarish mashqlari 10-15 daq; Kurash mankenda ishlash 10 daq; Tiklovchi cho'ziluchi mashqlar yelka q'ol, bel va oyoq muskullariga 10 daq	URM mashqlari 15-20 daq. Egiluvchanlikni rivojlantiruvchi mashqlar 10-15 daq; Maxsus bel va qo'l mushklari uchun kuch mashqlari 10-15 daq; Og'ir atletika mashqlari shtanga bilan 4 xil mashq 4 seriyadan, 16 kg. gantelni oyoq-son mushklari oldinga ko'targan holda gantelni yuqoriga ko'tarib tushurish, oyoq yerga tegmagan holda. Sport o'yinlari 15 daqiqa.	Sport o'yinlari 60 daqiqa. Qorin mushklari uchun 5 xil mashq 20 martadan 4 seriya. Tiklovchi yelka qo'l, bel va oyoq muskullariga. Sauna o'tkazish.	URM mashqlari 15-20 daqiqa. Chidamlilik uchun mashqlari 10-15 daqiqa; Maxsus texnik usullarni bajarish 10-15 daqiqa; Rezinali balon arqon bilan belga bog'langan holda oyoqlarni oldinga va yuqoriga harakatlantirib 60-70 % kuch bilan 60 m. 4 marta yugurish. 30 m. 2 marta 70-80 % kuch bilan yugurish.Chigal yozdi mashqlar 5-10 daqiqa.	URM mashqlari 15-20 daqiqa. Kuch sifatini rivojlantirish mashqlar 15-20 daqiqa. Kurash mankenda usullarni tezlikka takrollash.15.20 daqiqa. Chigal yozdi (gimmastik mashqlar) mashqlari 10-15 daqiqa. Sport o'yinlari 10-15 daqiqa.	Sport o'yinlari 60- daq Maxsus kuch mashqlari 10-15 daqiqa; 4 * 30 m. 2 marta 60-70 % kuch bilan yugurish. Toshlar bilan ishlash. Sauna o'tkazish.	Dam olish
Zarbdor	URM mashqlari 15-20 daq. Kuchni rivojlantiruvchi mashqlar 10-15 daq; Maxsus texnik usullarni bajarish mashqlari 10-15 daq; Kurash mankenda ishlash 10 daq; Tiklovchi cho'ziluchi mashqlar yelka q'ol, bel va oyoq muskullariga 10 daq	URM mashqlari 15-20 daq. Turnikda tortilish mashqini bajarish uchun 10-20 soniyadan, 10-15 seriya, 3-4 marta takrollansa, shu qatorida qo'larni bog'lagan holda gavdani o'ng va chapga aylantirish mashqini bajarish uchun 20-30 soniyadan, 3-4 seriyadan iborat, 3-4 marotaba takrollanish bajarilgandan so'ng, gimnastik o'rindiq ustidan sakrashlar mashqini bajarish uchun 1-2 daqiqadan, 10-15 seriyadan iborat, 3-4 marotaba takrollanishlarni bajarish tartibiga qat'iy rioya etib borilsa.	Yugurish mashqlari qo'llar bilan tayangan holatda yurish va yugurish (oyoqlar sherigi yordamida poldan 1 metr masofada yuqoriga ko'tarib ushlab yuriladi) rivojlantiruvchi mashqlar kuch, presa; bel mushklari uchun mashqlar. qo'llar bilan tayangan holatda oldinga sakrab harakatlanish (oyoqlar sherigi yordamida poldan 1 metr masofada yuqoriga ko'tarib ushlab yuriladi) 30-50 soniya va undan ortiq 3-4 seriyadan iborat, 3-4 marta takrollanadi.	URM mashqlari 15-20 daq. Kuchni rivojlantiruvchi mashqlar 10-15 daq; (150 zar/daq). Tezlik. - 5x 60 m. Maxsus mashqlar(1 km). Oyoq mushaqlari uchun mashqlari - 20 daqiqa.	Sekin yugurish 800 km. URM - 10 daq. Maxsus mashqlari. O'ng va chap oyoqlarda navbatma-navbat joyida sakrash mashqlari 1-2 daq. va undan ortiq 3-4 seriyadan iborat, 3-4 marta takrollanadi. Yugurish.-6x30 m. (175 zar/daq) 4 daq dam olish.	Yugurish mashqlari-100 m (140 zar/daq). URM - 10 daq. Tiklovchi va rivojlantiruvchi mashqlar - 30 daqiqa. Oldi tayanch holatidan (balandligi va yuzasi 50 santimetrni tashkil qiluvchi yumshoq predmet ustiga) ko'prik holatiga bosh osha xatlab o'tish (shu predmetga oyoqlar bilan tayanib) qaytish Oldi tayanch holatidan ko'prik holatiga bosh osha xatlab o'tib va sherigi yordamida qaytish 10-20 soniya va undan ortiq	Dam olish
Yaqinlashtiruvchi	URM mashqlari 15-20 daq. Kuchni rivojlantiruvchi mashqlar 10-15 daq; Belbog'li kurash usullarni tez sur'atda ishlashni takomillatirish 40-50 daq; Tiklovchi cho'ziluchi mashqlar yelka q'ol, bel va oyoq muskullariga 10 daq	URM-15 daqiqa. Maxsus texnik usullar bajarish qashlikda Bellashularni yarim qashlikda tashkil etish URM -8 daqiqa.	URM mashqlari 15-20 daq. Kuchni rivojlantiruvchi mashqlar 10-15 daq; Beltog'li kurash usullarni tez sur'atda ishlashni takomillatirish 40-50 daq; Tiklovchi cho'ziluchi mashqlar yelka qo'l, bel va oyoq muskullariga 10 daq	Belbog'li kurashchilarni usullarni bajarilish oldingi holatda kiftlash, shaklash usullarni rivojlantirish. O'yin - 45 daqiqa. Oyoq, bel, qo'l mushaqlarini mustahkamlash. uchun maxsus kuch mashqlari - 20 daqiqa.	URM-15 daqiqa. Maxsus texnik usullar bajarish mashqlari. Tashlashlar yarim qashlikda. Ko'htarib o'nga-chapga o'tkazish usullari Bellashularni yarim qarshilikda tashkil etish	Belbog'li kurashchilarni usullarni bajarilish oldingi holatda kiftlash, shaklash usullarni rivojlantirish. O'yin - 45 daqiqa. Oyoq, bel, qo'l mushaqlarini mustahkamlash. uchun maxsus kuch mashqlari - 20 daqiqa.	Dam olish
Musobaqa oldi	URM mashqlari 15-20 daq. Kuchni rivojlantiruvchi mashqlar 10-15 daq; Maxsus texnik usullarni bajarish mashqlari 10-15 daq; "kiftlash" "shak qo'yish" turish holatida takomillatirish 15-10 daq; Tiklovchi cho'ziluchi mashqlar yelka q'ol, bel va oyoq muskullariga 10 daq	URM -10 daqiqa. Maxsus past turish ko'rakni berib sherik hujmini chap tizza ko'tarishni boshlasa undan oldin o'ng tizza yordamda ko'tarib tashlash. Turish holatida o'ng oyoq oldinroq chap oyoq orqada sherikni belidan o'ziga tortib chap oyoq o'ng bilan birday uchiga ko'tarib chap tomonga tashlash. Texnik-taktik mashqlar maksimal shiddat zonasida	URM -10 daqiqa. Tizza yordamida ko'tarib tashlash usulni bajarganga shrik qarshilik harakatni boshlaganda pasayib chap tomonga ko'krakdan oshirib tashlash Musobaqa mashqlari Maksimal past turish holatidan to'g'ridan kirib o'ngdan chapga qaytarib tashlash ikkinchi yarimida qo'llarga tayanib qo'llarni bukib yozish mashqini bajarish 40-50 soniyadan, 2-3 seriya, 3-4 marotaba takomillash	URM - 20 daqiqa. Oyoq mushaklari uchun maxsus egiluvchanlik mashqlari - 20 daqiqa. tizza yordamida ko'tarib tashlash uchun haftaning dushanba, chorshanba, juma kunlarining birinchi yarimida turnikda tortilish mashqini bajarish uchun to'g'ridan kirib o'ngdan ortiq, 3-4 seriyadan iborat ko'rakdan oshirib tashlash shu harakatni chap tomonga ham bajarish	URM-20 daqiqa. Maxsus mashqlar oyoq oldinroq chap oyoq rqada sherikni belidan o'ziga tortib chap oyoq o'ng bilan birday uchiga ko'tarib chap tomonga 20-30 soniya 3-4 seriyadan iborat, 3-4 marta takrollanadi va undan ortiq tashlash past turish holatida chap tizza yordamida ko'tarib tashlash usulni bajarganda sherik qarshiligidan qochib chapga to'sib tashlash	URM -20 daqiqa. Tizza yordamida ko'tarib tashlash usulni bajarganga sherik qarshilik harakatni boshlaganda pasayib chap tomonga ko'krakdan oshirib tashlash musobaqa mashqlari Maksimal past turish holatidan to'g'ridan kirib o'ngdan chapga qaytarib tashlash 3-4 seriyadan iborat, 3-4 marta takrollanadi.	Dam olish
Musobaqa tiklanish va tayyorgarlik	Sekin yugurish -15 daqiqa URM - 20 daqiqa. Beltog'li kurash usullarni pas shiddatda takrollash -30 daqiqa Beltog'li kurash usullarni o'rta shiddatda takrollash -25 daqiqa	URM-10 daqiqa. Maxsus mashqlar texnik usullarni o'rta shiddatda bajarish. Tiklovchi va rivojlantiruvchi mashqlar 20 daqiqa.	URM-25 daqiqa. Maxsus texnik usullarni o'rta shiddatda bajarish 45 daqiqa bilan ishlash Tiklovchi mashqlar 20 daqiqa dam olish.	URM-25 daqiqa. Tiklovchi mashqlar -20 daqiqa. Maxsus texnik usullarni o'rta shiddatda bajarish. 45daqiqa	URM- 25 daqiqa. Maxsus tashlash usullari 40 marta. Tiklovchi mashqlar -25 daqiqa.	Musobaqalar yoki nazorat-test topshirish.	Musobaqalar

Belbog'li kurashchining umumiy jismoniy tayyorgarligi yuqori natijalarga erishish uchun poydevor bo'lib u eng zarur asos omil bo'lib hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi quydagilar hisoblanadi: belbog'li kurashchi organizmini har tomonlama uyg'un rivojlantirish, uning funksional imkoniyatlarini oshirish,

jismoniy sifatlarini rivojlantirish hamda salomatlik darajasini o‘stirish. Shiddatli mashg‘ulot va musobaqa yuklamalari davrida faol dam olishdan to‘g‘ri foydalanish ham umumiy jismoniy tayyorgarlik vositalari sifatida qarqtlqdi. Bu vositalar orasida jihozlarda va sherik bilan maxsus trenajyorlarda bajariladigan mashqlar, hamda boshqa sport turlari akrobatika, yengil atletika, sport o‘yinlari, suzish va h.k. dan olingan umumiy rivojlantiruvchi mashqlar ham o‘rin olgan.

Nazorat guruhi va tajriba guruhining jismoniy sifatlarning tadqiqot boshida nisbiy o‘shish ko‘rsatkichlari: 30 metrga yugurishda (sek) $t=1,37$; $P>0,05$ ni tashkil etdi. 10 soniyada balandlikka sakrashlar (marta) $t=1,19$; $P>0,05$ ni ko‘rsatdi. 10 soniyada turnikda tortilishlar (marta) $t=1,31$; $P>0,05$ ni etgan bo‘lsa. 10 soniyada qo‘llarga tayanib ularni bukib rostlash (marta) $t=1,23$; $P>0,05$ ni tashkil etdi. Bularga mos ravishda 10 soniyada tik turgan holda orqaga egilishl (ko‘prik) (marta) $t=1,26$; $P>0,05$ va ko‘prik holatida 10 m. masofaga yurish (sek) $t=1,48$; $P>0,05$ ni tashkil etdi. (7-jadvalga qarang)

7-jadval

75-82 kg vazn toifasidagi nazorat va tajriba guruhidagi belbog‘li kurashchilarning pedagogik tadqiqot boshida jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari o‘shish dinamikasi

№	Nazorat mashqlari	Nazorat guruh (n=18)			Tajriba guruh (n=18)			t	P
		\bar{X}	σ	V, %	\bar{X}	σ	V, %		
1.	30 metrga yugurish vaqti, s.	6,37	0,80	12,55	6,27	0,81	12,91	1,37	>0,05
2.	10 soniyada balandlikka sakrashlar marta	12,44	1,69	13,58	12,56	1,76	13,99	1,19	>0,05
3.	10 soniyada turnikda tortilishlar marta	7,11	1,04	14,63	7,22	1,08	14,95	1,31	>0,05
4.	10 soniyada qo‘llarga tayanib ularni bukib rostlash marta	12,61	1,46	11,58	12,50	1,49	11,92	1,23	>0,05
5.	10 soniyada tik turgan holda orqaga egilish (ko‘prik) marta	4,39	0,64	14,58	4,33	0,65	14,98	1,26	>0,05
6.	Ko‘prik holatida 10 m. masofaga yurish sek.	12,72	1,73	13,60	12,44	1,74	13,98	1,48	>0,05

Malakali belbog‘li kurashchilarning texnik harakati samaradorligini baholashda ularning jismoniy sifatlari hamda zaxiradagi imkoniyat darajalari orasidagi bog‘liqligi hisobga olinishi zarur. Ularning texnik mahorati darajasi zaxiradagi jismoniy sifat ko‘rsatkichlari va texnik-taktik tayyorgarligining takomillashganlik darajalari bilan belgilanadi. Belbog‘li kurashchlarning texnik-taktik mahorati darajasi hamda umumiy va maxsus jismoniy sifat ko‘rsatkichlarining takomillashganlik darajasi – musobaqalardagi bellashuvlarida bajariladigan texnik-taktik harakatlarining ko‘rsatkichlari bilan ifodalanadi. Mashg‘ulot jarayonida takomillashtirilgan texnik harakatlarni takrorlashlar soni hamda unga ajratilgan vaqt orqali ularning malakalarini shakllantirish va mahoratga erishish imkoniyatining kengayishi bilan izohlandi.

Nazorat va tajriba guruhidagi belbog‘li kurashchilarning texnik usullari tadqiqot boshida t – kriteriya va $P >$ ishonchlilik ko‘rsatkichlari: tizza yordamida ko‘tarib tashlash (sek) – $t=1,49$; $P>0,05$; tizza yordamida to‘shib tashlash (sek) – $t=1,62$; $P>0,05$; qaytarib tashlash (sek) – $t=1,42$; $P>0,05$; ko‘krakdan oshrib

tashlashda (sek) $t=1,38$; $P>0,05$ ni tashkil etganligi biz tomonimizdan ishlab chiqilgan tadqiqotning ishonchlilgini ko'rsatdi (**8-jadvalga qarang**)

8-jadval

75-82 kg vazn toifasidagi nazorat va tajriba guruhidagi belbog'li kurashchilarning pedagogik tadqiqot boshida texnik usullarni o'ng tomonga 10 marta bajarish ko'rsatkichlari o'sish dinamikasi

№	Texnik usul	Nazorat guruh (n=18)			Tajriba guruh (n=18)			t	P
		\bar{X}	σ	V, %	\bar{X}	σ	V, %		
1.	Tizza yordamida ko'tarib tashlash	60,52	0,16	10,58	60,55	0,17	10,98	1,49	>0,05
2.	Tizza yordamida to'sib tashlash	58,69	0,21	12,56	59,64	0,21	12,96	1,62	>0,05
3.	Qaytarib tashlash	60,74	0,25	14,56	60,77	0,27	14,99	1,42	>0,05
4.	Ko'krakdan oshirib tashlash	57,31	0,18	13,53	58,29	0,18	13,85	1,38	>0,05

Демак, ушбу бобда олиб борилган тадқиқот ишларимиздан маълум бўлдики, бунда НГ ва ТГ бўйича олиб борилган назорат машқларидаги самарадорлик юқори эканлигини кўрсатди.

Dissertatsiyaning “**Malakali belbog'li kurashchilarning umumiy va maxsus jismoniy, texnik tayyorgarligi nisbatini yil davomida optimallashtirish samaradorligi**” deb nomlangan to'rtinchi bobida tadqiqotning asosiy vazifalari malakali belbog'li kurashchilarni umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik nisbatini optimallashtirish dasturini ishlab chiqish, hamda uning tajriba asosida samaradorligini aniqlash bilan mashg'ulotlar ta'siri yig'indisini o'rganib chiqib, bir qator xulosa va amaliy tavsiyalar berishga qaratilgan. Asosiy pedagogik tajriba sinovlari davomida malakali belbog'li kurashchilarining mashg'ulotda qo'llaniladigan umumiy va maxsus mashqlarni aniqlash asosida malakali belbog'li kurashchilarga texnik usullarni takomillashtirishga qaratilgan o'sish va rivojlanish dinamikasi nazorat qilindi. Tajribada 36 nafar malakali kurashchilar ishtirok etib, tadqiqot ishlari tajriba va nazorat guruhlariga taqsimlangan tarzda olib borildi. Har bir guruh 18 nafar kurashchilardan iborat bo'ldi. Tadqiqotning asosiy vazifalari malakali belbog'li kurashchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik nisbatini optimallashtirishga qaratilgan dasturini ishlab chiqish, uning tajriba sinov asosida mashg'ulotlar samaradorligini aniqlash va uning ta'sirini o'rganib chiqib, bir qator xulosalar va amaliy tavsiyalar berishga qaratildi. Tadqiqot davomida tezlikni oshirish, kuch, chidamkorlik, chaqqonlik va egiluvchanlik rivojlantirish mashqlari yordamida yuklamalarni optimallashtirish holda olib borildi va uning samaradorligi aniqlandi. Jumladan, malakali belbog'li kurashchilar mashg'ulotlarida foydalanilgan yuklamalarning ta'sir yo'nalishi aniqlab berildi va optimallashtirish holda rejalashtirilib mashg'ulotlar tarkibiga yil davomida kiritilgan UJT, MJT samaradorligining tahlili tadqiqot boshida va oxirida matematik usulda hisoblab chiqildi.

NGga jalb qilingan respondentlarning guruhi jismoniy sifat ko'rsatkichlari tadqiqot oxirida olingan natijalariga ko'ra: 30 metrga yugurishda (sek) $5,93\pm 0,72$; V-12,14%ni tashkil etdi; 10 soniyada balandlikka sakrashlarda (marta) $13,65\pm 1,79$; V-13,11% bo'ldi; 10 soniyada turnikda tortilishlarda (marta) $7,72\pm 1,09$; V-14,11%ni tashkil etdgan bo'lga; 10 soniyada qo'llarga tayanib ularni bukib

rostlashda (marta) $13,64 \pm 1,52$; V-11,14%ni tashkil etdi; shuningdek mos ravishda 10 soniyada tik turgan holda orqaga egilishda (ko‘prik) (marta) $4,85 \pm 0,69$; V-14,12% ni ; ko‘prik holatida 10 m. masofaga yurishda esa (sek) $11,78 \pm 1,55$; V-13,16 %ni tashkil etdi.

TG dagi respandentlarda esa NG ga nisbatan o‘shish kuzatildi. Bunda jismoniy sifatlarining tadqiqot oxirida olingan ko‘rsatkich natijalarin ko‘rib chiqildi: 30 metrغا yugurish (sek) $5,40 \pm 0,66$; V-12,13%ni; 10 soniyada balandlikka sakrashlarni (marta) $15,29 \pm 2,01$; V-13,15%ni; 10 soniyada turnikda tortilishlar (marta) $8,58 \pm 1,21$; V-14,10%ni; 10 soniyada qo‘llarga tayanib ularni bukib rostlashda (marta) $12,79 \pm 1,65$; V-11,16%ni tashkil etdi; shuningdek mos ravishda 10 soniyada tik turgan holda orqaga egilish (marta) $5,36 \pm 0,76$; V-14,18% ni; ko‘prik holatida 10 m. masofaga yurish(sek) $10,57 \pm 1,39$; V-13,15% ga ortganligi isbotlandi. Bu ko‘rsatkichlar biz qollagan uslub samaradorligini ko‘rsatdi. (9-jadvalga qarang)


9-jadval

75-82 kg vazn toifasidagi nazorat va tajriba guruhidagi belbog‘li kurashchilarning pedagogik tadqiqot oxirida jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari tahlili

№	Nazorat mashqlari	Nazorat guruh (n=18)			Tajriba guruh (n=18)			t	P
		\bar{X}	σ	V, %	\bar{X}	σ	V, %		
1.	30 metrغا yugurish vaqti, s.	5,93	0,72	12,14	5,40	0,66	12,13	2,32	<0,05
2.	10 soniyada balandlikka sakrashlar marta	13,65	1,79	13,11	15,29	2,01	13,15	2,59	<0,05
3.	10 soniyada turnikda tortilishlar marta	7,72	1,09	14,11	8,58	1,21	14,10	2,23	<0,05
4.	10 soniyada qo‘llarga tayanib ularni bukib rostlash marta	13,64	1,52	11,14	14,79	1,65	11,16	2,17	<0,05
5.	10 soniyada tik turgan holda orqaga egilish (ko‘prik) marta	4,85	0,69	14,12	5,36	0,76	14,18	2,11	<0,05
6.	Ko‘prik holatida 10 m. masofaga yurish sek.	11,78	1,55	13,16	10,57	1,39	13,15	2,47	<0,05

NG ga jalb qilingan kurashchilar jismoniy sifat ko‘rsatkichlarining tadqiqot oxiridagi nisbiy o‘shish qiymati: 30 metrغا yugurish (sek) 6,94; 10 soniyada balandlikka sakrashlarni (marta) 9,69; 10 soniyada turnikda tortilishlar (marta) 8,62; 10 soniyada qo‘llarga tayanib ularni bukib rostlashda (marta) 8,16; 10 soniyada tik turgan holda orqaga egilish (marta) 10,51; va ko‘prik holatida 10 m. masofaga yurish (sek) 7,41 nisbiy o‘shish qiymatini tashkil etdi. Umumiy nisbiy o‘shish ko‘rsatkichlari 8,55 ni tashkil etganligini isbotlandi. TG ga jalb qilingan belbog‘li kurashchilarning jismoniy sifat ko‘rsatkichlarining tadqiqot oxirida nisbiy o‘shish qiymati: 30 metrغا yugurish sek, 13,94; 10 soniyada balandlikka sakrashlarni (marta) 21,78; 10 soniyada turnikda tortilishlar (marta) 18,8 ni; 10 soniyada qo‘llarga tayanib ularni bukib rostlashda (marta) 18,32; 10 soniyada tik turgan holda orqaga egilish (marta) 23,69 nisbiy; va ko‘prik holatida 10 m. masofaga yurish (sek)

15,06 nisbiy o'sishga erishildi. Umumiy nisbiy o'sish ko'rsatkichlari 18,06 ni ko'rsatib NG dagi belbog'li kurashchilarga nisbatan ancha uyqorilgini ko'rsatib tajriba sinovimizning ishonchlilgini ko'rsatdi. **(4-rasimga qarang)**



4-rasm. 75-82 kg vazn toifasidagi nazorat va tajriba guruhidagi belbog'li kurashchilarning pedagogik tadqiqot oxirida jismoniy tayyorgarligining nisbiy o'sish dinamikasi.

Tadqiqot oxiriga kelib, tajriba va nazorat guruhlaridagi belbog'li kurashchilarning jismoniy sifat ko'rsatkichlari qayta aniqlanib tahlil qilindi. TG va NG belbog'li kurashchilarining jismoniy tayyorgarligi bo'yicha tadqiqot boshida va oxirida olingan natijalari, ularning statistik xususiyatlarini solishtirish asosida pedagogich tajriba sinovi davomidagi o'zgarishining ishonchliligi aniqlandi. Malakali belbog'li kurashchilarni kuzatishda qo'llanilgan uslublardan foydalanildi va mashg'ulot dasturini optimallashtirish borasida belbog'li kurashchilarning mashg'ulotlarda MJT yil davomida optimallashtirilgan nisbatining samaradorligi aniqlandi.

NG sinaluvchilarining texnik usullarni o'ng tomonga 10 marta bajarish ko'rsatkichlari tadqiqot oxirida quyidagicha bo'ldi: tizza yordamida ko'tarib tashlash usulini bajarish (sek) $59,42 \pm 0,14$; V-10,10%; tizza yordamida to'sib tashlash usulini bajarish (sek) $57,55 \pm 0,19$; V-12,13%; qaytarib tashlash usulini bajarish (sek) $59,60 \pm 0,23$; V-14,13%; va ko'krakdan oshirib tashlash usulini bajarish (sek) $56,19 \pm 0,16$; V-13,18%ni tashkil etdi.

TG guruhi sinaluvchilarining texnik usullarni o'ng tomonga 10 marta bajarish ko'rsatkichlari tadqiqot oxirida quyidagicha bo'ldi: tizza yordamida ko'tarib tashlash usulini bajarish (sek) $52,33 \pm 0,13$; V-10,11%; tizza yordamida to'sib tashlash usulini bajarish (sek) $57,37 \pm 0,17$; V-12,13%; qaytarib tashlash usulini bajarish (sek) $59,49 \pm 0,21$; V-14,16%; va ko'krakdan oshirib tashlash usulini bajarishda (min,sek) $56,05 \pm 0,14$; V-13,09%ni tashkil etdi. **(10-jadvalga qarang)**

10-jadval


75-82 kg vazn toifasidagi nazorat va tajriba guruhidagi belbog'li kurashchilarning pedagogik tadqiqot oxirida texnik usullarni o'ng tomonga 10 marta bajarish ko'rsatkichlari (n=18)

№	Texnik usul	Nazorat guruh (n=18)			Tajriba guruh(n=18)			t	P
		\bar{X}	σ	V, %	\bar{X}	σ	V, %		
1.	Tizza yordamida ko'tarib tashlash (sek)	59,42	0,14	10,10	52,33	0,13	10,11	2,76	<0,01

2.	Tizza yordamida to'sib tashlash (sek)	57,55	0,19	12,13	54,37	0,17	12,14	3,10	<0,01
3.	Qaytarib tashlash (sek)	59,60	0,23	14,13	56,49	0,21	14,16	2,51	<0,05
4.	Ko'krakdan oshirib tashlash (sek)	56,19	0,16	13,18	54,05	0,14	13,09	2,78	<0,01

NG sinaluvchilarining texnik usullarni o'ng tomonga 10 marta bajarish ko'rsatkichlari tadqiqot oxirida nisbiy o'sish natijasi: tizza yordamida ko'tarib tashlash usulni bajarishda (sek) 6,94; tizza yordamida to'sib tashlash usulini bajarishda (sek) 8,16; qaytarib tashlash usulini bajarishda (sek) 7,93; va ko'krakdan oshirib tashlash usulini bajarishda 8,93 nisbiy o'sish ko'rsatkichni tashkil etdi. Tadqiqot oxirida umumiy nisbiy o'sish ko'rsatkichi 7,99 ni tashkil qildi.

TG sinaluvchilarining texnik usullarni o'ng tomonga 10 marta bajarish ko'rsatkichlarining tadqiqot oxirida nisbiy o'sish natijasi: tizza yordamida ko'tarib tashlash usulni bajarishda (sek) 14,39; tizza yordamida to'sib tashlash usulini bajarishda (sek) 16,84; qaytarib tashlash usulini bajarishda (sek) 16,03; va ko'krakdan oshirib tashlash usulini bajarishda 18,0 nisbiy o'sish ko'rsatkichni tashkil etdi. Bu tadqiqot oxirida umumiy nisbiy o'sish ko'rsatkichi 16,32 ni ko'rsatib NG nisbatan ishonchli o'sishga erishganligini isbotladi. (5-rasmga qarang)



5-rasm. 75-82 kg vazn toifasidagi nazorat va tajriba guruhidagi belbog'li kurashchilarning pedagogik tadqiqot oxirida texnik usullarni o'ng tomonga 10 marta bajarishda nisbiy o'sish dinamikasi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki biz tomonimizdan olib borilgan ko'p yillik pedagogik tajriba sinovimiz ilmiy isbotlandi va malakali belbog'li kurashchilarning yuqori natijalariga erishishiga ilmiy asos bo'lib hizmat qildi.

XULOSALAR

Dissertatsiya ishi bo'yicha mavzuga oid to'plangan adabiyot manbalarini o'rganish, olib borilgan kuzatuv, o'tkazilgan tadqiqotlar, pedagogik testlash va pedagogik tajriba natijalarining tahlilidan quyidagi hulosalarni chiqarish mumkin:

1. Adabiyotlarni tahlil qilish natijasida asosiy musobaqalarga tayyorgarlik davrida mezotsikl tarkibidagi tortuvchi, zarbdor, yaqinlashtiruvchi mikrotsikllarda musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichiga nisbatan vaziyatlarni modellashtirish evaziga belbog'li kurashchilarning musobaqa bellashuvlarida muvaffaqiyatga erishishi uchun vosita va uslublarni rejalashtirishda ilmiy yondashuvlar yetarli emasligi aniqlandi.

Musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichida qo'llaniladigan uslublar, ularning yo'nalishi, vositalardan oqilona foydalanish evaziga mashg'ulot samaradorligi maksimal darajaga ko'tarildi. Umumiy va maxsus qobiliyatlarning o'sish sur'ati doimiyligini saqlab qolish uchun vaqti-vaqti bilan, ya'ni har 2-3 haftada mashg'ulot

mazmunini yangilab, yuklama xarakterini o'zgartirib borish kerakligi aniqlandi.

2. Malakali belbog'li kurashchilarni musobaqa oldi tayyorgarligi davrida aldamchi harakatlarga o'rgatish orqali bellashuvlardagi taktik harakat elementlarini bajarish, murakkab hujum harakatlarini boshlashdan oldin chalg'ituvchi harakat variantlarini qo'llash, raqib hujumini buzish orqali qulay dinamik holatni shakllantirishga qaratilgan taktik harakatlarni rivojlantirish orqali egiluvchanlik, tezkorlikka ko'proq xos bo'lgan texnik usullarni 13,7-16,4% ga oshirishga erishildi. Natijada muhim vaziyatlarda raqibni mag'lub etish imkoniyati oshganligi kuzatildi.

3. Belbog'li kurashchilarning musobaqa oldi tayyorgarligi davrida hujum harakatlarini takomillashtirish, texnik-taktik harakatlarni bajarish; har bir holatga tanlab yo'naltirilgan maxsus mashqlarni qo'llash, bellashuvga tayyorgarlik taktikasini shakllantirish, musobaqa oldi mezotsikliga tayyorlash uchun asosiy tayanch usullarni qo'llash, dastlab himoyalani orqali qulay vaziyatda qarshi hujum usullari ketma-ketligini kombinatsiyalash hisobiga, tizza yordamida ko'tarib tashlash usullarini 10 marta bajarish soniyasiga tajribadan oldin: TG $60,55 \pm 0,17$, V-10,98%ni tashkil qilgan bo'lsa, tadqiqot oxiriga kelib esa – $52,33 \pm 0,13$, V-10,11% tashlash soniyasi yaxshilanishiga erishildi. NG esa $60,52 \pm 0,16$, V-10,58 %ni tashkil qilgan bo'lsa, tadqiqot oxiriga kelib $59,42 \pm 0,14$, V-10,10 %ni tashkil qildi. Tizza yordamida ko'tarib hamda to'sib tashlash usullarini bajarish samaradorligini 13,6-15,9 %ga oshirishga erishildi.

4. Olib borilgan mashg'ulotlar davomida tajriba guruhining jismoniy tayyorgarligi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yashilanganligi aniqlandi. Tadqiqot davomida NG sinaluvchilarining o'rganilgan testlari bo'yicha pedagogik tajriba davomida ijobiy o'zgarishga (o'rganilgan testlar guruhdagi o'rtacha nisbiy o'sish ko'rsatkichi 8,55%) nisbatan TG dagi aynan mos ko'rsatkichlarning ijobiy o'zgarishlari (o'rganilgan testlar bo'yicha guruhdagi o'rtacha nisbiy o'sish 18,60%, ya'ni NG dagiga nisbatan 10,05 marta) yuqori va statistik ishonchli (NG da 2 ta test bo'yicha o'zgarishlar normal $P < 0,05$ ahamiyatlilik darajasida) ekanligi aniqlandi. Ushbu ko'rsatkichlar TG da qo'llanilgan dasturning samaradorligini tasdiqladi.

5. Mashg'ulot yuklamalarini berib borish jarayonida turli yo'nalishdagi mashqlarni bajarish ketma-ketligi hisobga olindi, mashg'ulotda mashqlarni quyidagi ketma-ketlikda berib borish natijasida, avval alaktat-anaerob (tezkor-kuch), so'ngra anaerob-glikolitik mashqlar (tezkorlik chidamliligiga qaratilgan mashqlar) alaktat-anaerob, so'ngra aerob mashqlar (umumiy chidamlilikka qaratilgan mashqlar), anaerob-glikolitik (kichik hajmda), so'ngra aerob mashqlar bilan olib borish orqali musobaqalarda yuqori natijalarga erishish mumkunligi tadqiqotlar asosida isbotlandi.

6. Mazkur mashg'ulot yuklamasining sportchi organizmiga ta'sirining yo'nalishiga qarab, odatda, ishning shiddat vaqtini uch zonada hisoblash mumkin: I zona asosan aerob, YuQS –140-150; II zona aralash: aerob – anaerob YuQS – 156-180 va III zona – anaerob, YuQS-186 va undan baland ekanligi tajribada asoslandi. Birinchi zonada bajarilgan ishning umumiy vaqti 28 daqiqa va umumiy vaqtning 30%ini, yuklama kattaligi esa 36 shartli birlikni tashkil etdi. Ikkinchi zonada mashg'ulot vaqti 52 daqiqaga va umumiy vaqtning 65% ga, yuklama kattaligi esa 536 shartli birlikka teng bo'ldi. Uchinchi zonada sportchi 10 daqiqa va umumiy vaqtning 10 %ga teng ish bajardi, yuklama kattaligi esa 210 shartli birlikni tashkil

qildi. Sportchining mashg'ulot yuklamasi 782 ni tashkil etdi, bu formulada katta yuklama sifatida mashg'ulotlarni tashkil etish ilmiy asoslab berildi.

7. Yil davomida TG belbog'li kurashchilarida qo'llanilgan usul va vositalar NG dagiga nisbatan ancha samarali ekanligi aniqlandi. Bu o'z navbatida, malakali belbog'li kurashchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini optimallashtirish va mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish sifatini oshirish, miqdoriy yo'nalishlar asosida mashg'ulotlardan ratsional foydalanish, mashg'ulot dasturlari samaradorligini oshirish va charchash alomatlarini oldini olish imkonini yaratdi.

AMALIY TAVSIYALAR

1. Musobaqa oldi tayyorgarlik sikllarini tashkil qilishda mashg'ulotlardagi yuklamalarini umumiy va maxsus chidamlilik, tezlik va tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishdagi mutanosiblikka rioya qilish asnosid kurashchilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarlik darajasini hisobga olib, mashg'ulot vositalari va usullarini tanlash, mashg'ulot jarayonini me'yorlashtirish, uzoq muddatli jismoniy tayyorgarlikning individual ko'rsatkichlarini aniqlash masalalarini kompleks xisobga olgan holda tanlash tavsiya etiladi.

2. Malakali belbog'li kurashchilarning musobaqa oldi tayyorgarligi bosqichida funksional va jismoniy holatlarini rivojlantirishda asosan: maxsus, yaqinlashtiruvchi va texnik harakatlarni rivojlantirishga qaratilgan vosita va dasturlarni amaliyotda qo'llash asosida har bir mashg'ulot davrlari, bosqichlari bo'yicha mashg'ulotlarni samarali tashkil qilish murabbiylar uchun tavsiya etiladi.

3. Mashg'ulotlarni rejalashtirishda mashg'ulotning yuklama kattaliklarini asosiy musobaqalarda oshirib borish jarayonida shug'ullanuvchilar organizmida o'sish kuzatilishi va berilgan yuklamalar to'g'ri to'lqinsimon jadval asosida tashkil qilinishi samarali ekanligi tavsiya etiladi.

4. Yillik siklda malakali belbog'li kurashchilarni tayyorlash paytida o'quv yuklamaning umumiy hajmi 1248-1456 soatni tashkil qildi. Jismoniy tayyorgarlikka 660 soat ajratilgan bo'lib, ularning 35 foizini umumiy jismoniy tayyorgarlik, 65 foizini maxsus jismoniy tayyorgarlik, 540 soat texnik-taktik tayyorgarlik va musobaqa bosqichi uchun umumiy soatning 30-40 foizini ajratish maqsadga muvofiqdir. Dasturda belbog'li kurashchilarning musobaqa oldi bosqichi tayyorgarligi ilmiy asoslangan uslubiy qoidalar, jismoniy, texnik, taktik va nazariy tayyorgarlik bo'yicha ma'lumotlar o'z aksini topgan va u murabbiylarga tavsiya qilinadi.

5. O'quv-mashg'ulotlar jarayonida yuksak funksional darajada bosqichli takomillashtirishga alohida e'tibor qaratish - bu har bir shug'ullanuvchiga, har bir mashg'ulotda funksional imkoniyatlarga mos yuklamalarning tanlanishiga, energiya ta'minot tizimlari bo'yicha jismoniy sifatlarni tarbiyalashda organizmning yuklamaga bo'lgan reaksiyasini tezkor usulda aniqlab, mashqlar va mashg'ulotlar orasidagi dam olish davomiyligini to'g'ri tashkil qilish, yuklamani shug'ullanuvchilar holatiga mos ravishda tanlanishi bilan tavsiya etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
ПРИСВОЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ
И СПОРТА**

**УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ФИЗИЧЕСКОЙ
КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

ИСАЕВ ИКБОЛЖОН БУРХОНОВИЧ

**ПЛАНИРОВАНИЕ УЧЕБНОЙ НАГРУЗКИ БОРЦОВ НА ПОЯСАХ НА
ЭТАПЕ ПРЕДСОРЕВНОВАТЕЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ**

**13.00.04 - Теория и методика физического воспитания, спортивной тренировки,
оздоровительный и адаптивной физической культуры**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за № B2023.3.Phd/Ped3919.

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете физической культуры и спорта.

Автореферат диссертации на трёх (узбекском, русском, английском (резюме)) языках, размещен на веб-сайте Научного совета по адресу (www.uzdjtsu.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Киргизбаев Маъруф Муйдинович**
доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент

Официальные оппоненты: **Мухаммадиев Комил Бурхонович**
доктор педагогических наук (DSc), доцент

Артиков Зоҳид Собирович
доктор философии по педагогическим наукам (PhD), профессор

Ведущая организация: Чирчикский государственный педагогический университет

Защита диссертации состоится «___» «_____» 2024 г. в _____ часов на заседании Научного совета DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 при Узбекском государственном университете физической культуры и спорта по адресу: 111709, Ташкентская область, г.Чирчик, ул. Спортчилар, дом 19. Тел: (0-370) -717-17 79,717-27-27, факс: (0-370) 717-17-76, Веб-сайт: www.uzdjtsu.uz, e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz. Узбекского государственного университета физической культуры и спорта административное здание Б, 2-этаж, кабинет научного совета.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета физической культуры и спорта (зарегистрирована за _____) по адресу: 111709, Ташкентская область, г.Чирчик, ул. Спортчилар, дом 19.

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2024 года (реестр протокола рассылки №___ от «___» _____ 2024 года)

Керимов Ф.А.

Председатель научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.п.н, профессор

Холмуродов Л.З.

Ученый секретарь научного совета
по присуждению
ученых степеней,
д.ф.п.н. (PhD), доцент

Дадабоев О.Ж.

Председатель научного семинара при научном
совете по присуждению ученых степеней,
д.п.н. (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Помимо широкого развития нашей национальной борьбы в мировом масштабе, ведется объемная работа по модернизации системы подготовки борцов на поясах. Но при этом важно определить оптимальное соотношение предсоревновательных подготовительных тренировочных нагрузок для борцов на поясах, приобретает всё большее значение вопрос использования эффективных средств и методов в учебно-тренировочном процессе. Организация учебно-тренировочного процесса на основе всех упражнений, используемых в единоборствах при подготовке борцов на поясах к соревнованиям, а также, недостаточная изученность факторов, влияющих на физическое развитие, и на эффективность технико-тактических действий, ставит перед специалистами данной области ряд задач.

Специалистами отрасли и ведущими исследователями в лидирующих странах мира по борьбе на поясах проведено множество научных исследований по методам обеспечения пропорциональности общих и специальных движений, обучение техническим движениям при выполнении различных сложных приемов в борьбе на поясах. В результате наблюдения за соревнованиями по борьбе на поясах необходимо проанализировать объективные данные о показателях роста результатов соревнований в связи с тем, что резко возрастает конкуренция и в отработке движений, отражающих высокое мастерство, выполненное квалифицированными борцами на поясах, и при этом вопрос оптимизации различных аспектов базовой подготовки остается одной из актуальных проблем. На этапе предсоревновательной подготовке новые средства и методы развития технических приемов и физических качеств ориентированы на регулирование объема и интенсивности нагрузок в тренировочный период. Естественно, отмечается, что не изучены вопросы, связанные с планированием тренировок направление стандартной величины нагрузок на тренировках и увеличением общего размера нагрузки между соревнованиями, а также проблемы, связанные с данной темой.

В нашей республике проблема развития физической и технико-тактической подготовки спортсменов рассматривается как одно из приоритетных направлений в целях популяризации спорта и достижения высоких результатов. «Дальнейшее развитие и популяризация борьбы призвано привлечь к здоровому образу жизни все слои населения нашей страны независимо от возраста, воспитать у молодёжи верность к Родине, сделать борьбу одним из любимых видов спорта народов мира, пропагандировать ее гуманные идеи, такие как честность, справедливость и толерантность к народам мира»⁵. Именно с этой точки зрения возникает необходимость оптимизации нагрузок на этапах ежегодной физической подготовки при проектировании тренировочного процесса. В целях реализации и совершенствования технико-тактических действий борцов на

⁵Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему развитию национального вида спорта «кураш» от 02 октября 2017 г. № ПП-3306 и «О мерах по развитию и дальнейшему повышению международного авторитета национального вида спорта кураш» от 4 ноября 2020 года ПП-4881

поясах предъявляется требование восстановления и всестороннего контроля подготовки при подготовке талантливых спортсменов среди молодежи для профессионального спорта.

Указы Президента Республики Узбекистан «О мерах по коренному совершенствованию системы государственного управления в области физической культуры и спорта» от 5 марта 2018 года № ПФ-5368, «О мерах по дальнейшему развитию национального вида спорта «Кураш»» от 2 октября 2017 года ПП-3306, «О мерах по развитию и дальнейшему повышению международного авторитета национального вида спорта кураш» от 4 ноября 2020 года за номером ПП-4881, Постановление Кабинета Министров «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы отбора спортсменов в сборные команды по видам спорта» от 4 марта 2020 года за номером №122 и другие нормативно-правовые документы по данной области, которые служат в определенной степени реализации указанных задач в диссертационном исследовании.

Соответствие исследования основным приоритетным направлениям развития науки и технологий в Республике. Диссертационное исследование была проведена самостоятельно в зависимости от приоритетного направления развития науки и техники республики I. «Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-образовательном развитии информированного общества и демократического государства и пути их реализации».

